

BOLALARNING MAKTAB TA'LIM TIZIMI TAYYORLOVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221615>

Annotatsiya. Bolalarning maktab ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi omillar 2 xil bo'ladi. Ular Psixologik va ijtimoiy ta'sir etuvchi omillar sanaladi. Bu maqolada bolalarga ta'sir etuvchi omillarni uning faoliyatida ahamiyati haqida aytib o'tilgan va L.Vigotskiy, I.A Menchinskaya va V.S Muhina, A.N Golubeva, A.P Larin kabi olimlarning ilmiy nazariy fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: liberal, demokratiy, avtoritar, negativizm, nosog'lom muhit.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОДГОТОВКУ ДЕТЕЙ К СИСТЕМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Факторы, влияющие на систему школьного образования детей, делятся на два типа: психологические и социальные. В данной статье рассматривается значение этих факторов в деятельности ребёнка, а также приводятся научно-теоретические идеи таких учёных, как Л. Выготский, И. А. Менчинская, В. С. Мухина, А. Н. Голубева, А. П. Ларин.

Ключевые слова: либеральный, демократический, авторитарный, негативизм, нездоровая среда.

FACTORS INFLUENCING CHILDREN'S PREPARATION FOR THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM

Annotation

The factors influencing children's school education system are divided into two types: psychological and social. This article discusses the significance of these factors in children's activities and presents the scientific and theoretical ideas of scholars such as L. Vygotsky, I. A. Menchinskaya, V. S. Mukhina, A. N. Golubeva, and A. P. Larin.

Keywords: liberal, democratic, authoritarian, negativism, unhealthy environment.

Kirish

Bolaning maktabga ijtimoiy psixologik tayyorgarligiga tasir etuvchi omillaridan biri bu oila hisoblanadi. Chunki bola tug'ilishi bilan shu muhitda yashaydi va shu muhitda rivojlanadi. Ota onalar bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanadilar;

1. Avtoritar uslub- bu boshqarish qattiqqo'llik bilan olib boriladi. Bolaning har bir hatti harakati jazolanadi. Bu usulda tarbiyalangan bola qo'rqqoq, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydigan bo'ladilar. Chunki ota onalar ularga vaziyat yaratib bermaydilar
2. Liberal uslub- ota ona bunday usulda bolaga nisbatan ahamiyatsiz, befarq bo'ladi. U bolasining nima qiziqadi, nimaga layoqat borligiga qiziqmaydi.

3. Bola nima yaxshi nima yomonligini bilmay voyaga yetadi. Shuning uchun ham bola o'zining fikrlarini erkin bildirib qo'yadigan mustaqil bo'lmaydi

4. Demokratik uslub - bunda ota ona farzandiga bor mehrini beradi va uning qiziqishlari va imkoniyatlari haqida o'yladi. Bolaning mustaqil fikrlashini xohlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ayni yoshni inqiroz davrini boshdan kechiradilar. Rivojlanish inqirozlari ma'lum bir vaqtda barcha bolalarda sodir bo'ladi. Bu inqiroz davri bolalarda turlicha kechadi. Bazilarida bu inqiroz davr sezilmay o'tib ketadi, ba'zilarida juda og'ir kechadi. Inqiroz belgilarning paydo bo'lishi bolaning yoshi ulg'ayganligi va boshqalar bilan kattalar munosabatiga tayyor ekanliklaridan dalolat beradi.

Bolaning psixikasida vujudga keladigan inqirozning sabablari;

1. Kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini
2. Xohish va istagini mustaqil holda qaror toptirishga intilishi
3. Ko'zga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf etishga urinishi
4. O'z xolicha ish tutishini cheklashlaridir

L.Vigotskiyning fikricha, atrof-muhit bolaning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bunga, shubhasiz, jamiyatda sodir bo'layotgan hamma narsa ta'sir qiladi: qonunlar, ota-onalarning maqomi va malakasi, vaqt va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.

Atrof muhit har bir bolaga turli xil tasir qiladi, Chunki bolaning ongi va vaziyatlarni sharhlash qobiliyati, atrof muhitdan olingan tajribalar asosida o'zgarib turadi. Shuning uchun har bir vaziyatga har bir bola turlicha yondashadi.

Inqiroz davrining quyidagi xususiyatlari mavjud;

Negativizm- bu boladagi xulq atvorning bir turi bunda bola kattalar tomonidan taklif qilingan yoki buyurilgan ishni yoki boshqa shunga o'xshash narsalarni qilishni xohlamaslikni anglatadi. Bola bu vaqtda hech narsa qilishni xohlamaydi yoki biror ishni qilishni xohlaydi.

Inqirozning ikkinchi belgisi o'jarlik hisoblanadi. Bola biror nimani xohlagani uchun emas balki talab qilgani uchun o'jarlik qiladi. Qaysarlikdan o'jarlikni ajrata olishimiz kerak. I.A Menchinskaya va V.S Muhinaning mulohazalariga ko'ra, bolalardagi inijlikning bosh omili atrofdagi insonlarning ular shaxsiga adolatsiz, mensimay munosabatda bo'lishidir.

A.N Golubevaning fikricha noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy tasir o'tkazish unda o'jarlikni keltirib chiqaradi.

A.P Larin fikricha ham o'jarlikning kelib chiqishi bolaning mustaqilligini cheklab qo'yish erkinlik tuyg'usini sindirish va uning anglash xususiyatini kamsitishdan iboratdir.

Uchinchi belgisi bu irodadir. Bola bu yoshda hamma narsani hechkimmi yordamisiz faqatgina o'zi bajarishni istaydi.

Uzbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tugrisidagi Nizomga muvofik bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustakil ta'lim berishi orkali yoki doimiy faoliyat kursatadigan Maktabgacha tarbiya muassasalarida, shuningdek Maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb kilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruxlar yoki markazlarda oladi.

Xulosa qilib aytamanki, Bolaning maktab ta'lim tizimiga o'tishi u uchun krizis davr sanaladi. Chunki bola bu davrda o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tayotgan bo'ladi. Bu paytta oila muhim omil sanaladi. Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadiki, boshqa hech qaysi tarbiya ob'ekti oiladagidek yuqori darajada bolmaydi. Bolalarga oilada estetik tarbiya berishning ham ahamiyati kattadir. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror bir ertak yoki hikoyani oila davrasida o'qish, birga kino yoki har xil spektakillar ko'rib va ularni tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish bolani estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1 may
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
3. P. Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "O'qituvchi" T.: 1993-yil.
4. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
5. Xalilova N.I. Norqo'ziev D.B. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi. Toshkent. 2009-yil.
6. Z.I.Nishanova N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiya. pedagogik psixologiya.
7. Shamshetova Anjim Karamaddinovna. Saipova Maloxat Latipovna. Bolalar psixologiyasi.
8. Sh.A.Dusmuhammedova, N.T. Rasylova. Rivojlanish psixologiyasi va diffrensial psixologiya
9. Sh.A. Do'stmuhammedova, X.A.Tillashayhova, G.Baykunosova, G.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya
10. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva, M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti,2023